

## **Mahalla bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish**

TIQXMMI "Gidromelioratsiya" fakulteti "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasи professor o'qituvchilarи D.Nazaraliyev, S.Nurjanov, Sh.Akmakov, I.Ro'ziyev, S.Qodirov, Q.Eshquvatov, J.Hamroqulovlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-sonli farmoni, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 29 - apreldagi 202-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash yuzasidan, 12.06.2021 yilda Toshkent shahar Mirzo-Ulug'bek tumanidagi "Lashkarbegi" M.F.Y. ga tashrif buyurdilar.



Tashrif davomida "Lashkarbegi" M.F.Y. raisining o'rinosi Zulfiya Rasuli bilan uchrashildi, mahalladagi bandligi ta'minlanmagan yoshlар soni aniqlandi va ularni ro'yxati shakllantirildi, mahalla yoshlari uchun tadbirkorlik o'quv kurslari tashkil etish, mahalladagi yoshlarning qiziqishlariga qarab ularni "Ingliz tili" kursi, "Kompyuter savodxonligi" kurslariga jalb etish bo'yicha mahalla hududidagi uylarga e'lonlar tarqatildi. Shundan so'ng mahalladagi keksa yoshli yotib qolganlar uylariga borib ahvoldidan xabar olindi.



Bundan tashqari mahalladagi bir nechta yoshlар bilan ham uchrashuv tashkil etildi va ularni qiziqtirgan savollariga javob berildi. Kafedra o'qituvchilarи mahalla hududida joylashgan kutubxonaga ham tashrif buyurdilar u yerdagi mavjud adabiyotlar hamda yoshlarni kutubxonadan foydalanishlari haqida ma'lumotlar olindi. Mahalla bilan muntazam ravishda aloqa qilish ishlari kelishib olindi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**